

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.M.Qandov	Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
U.J.Mansurov	Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
M.M.Alimova	1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi	312
J.Museyibzada	Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
A.A.Azizov	Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida)	324
A.T.Ahmedov	Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	328
D.A.Urinbayeva	Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
T.Ch.Xoliyarov	Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi	340
X.X.Mamajonov	Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniy imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar	347
I.S.Yusupov	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi	351
F.K.Jumanazarova	Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
U.X.Gulmatov	O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni	359
ADABIYOTSHUNOSLIK		
U.B.Matmurotova	Badiiy tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida.....	364
Sh.A.Safarova	"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish	369
D.I.Nazarova	Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar	374
TILSHUNOSLIK		
A.B.Uralov	Til sathlarida nomutanosiblik	381
A.Sh.Muxamadiyev	Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova	Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida	393
U.Sh.Turaeva	Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
Y.T.Rakhmonkulova	A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages	401
O.F.Turdaliyev	"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli	405
M.O.Usarova	Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari	413
Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова	Смысловые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер	417
B.Q.Nomonov	Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



UO'K: 392:316.34:81'373.21

ISMLARNING QO'LLANILISH DINAMIKASI SOTSIOMADANIY MUAMMO SIFATIDA**ДИНАМИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИМЕН КАК СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ПРОБЛЕМА****THE DYNAMICS OF USING NAMES AS A SOCIO-CULTURAL PROBLEM****Sultonova Shoxista Muxammadjanovna¹** ¹Alfraganus universiteti prof., f.f.d.**Sodiqova Sabohat Ilhom qizi²** ²Xalqaro Nordik Universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Tilshunoslik so'ngi tadqiqotlari markazida inson omili turar ekan, unga bog'liq bo'lgan har qanday birlik dolzarb tadqiqot obyekti bo'la oladi. Insonlarga berilgan ismlar ana shunday faol lingvistik birlik bo'lib, mazkur maqolada onomastika, keyinchalik undan ajralib chiqqan antroponimika va ularning birligi bo'lgan ismlar haqida nazariy ma'lumotlar hamda bu birliklarning o'rganilish darajasi qisman keltirilgan. Tadqiqot maqsadi vaqt o'tishi bilan turli ismlar urfga kirishi sabablarini o'rganish bilan birga ism tanlashda ahamiyatli sanalgan omillarni aniqlash bo'lib maqola uchun ma'lumotlar tahlil hamda so'rovnomaga metodi yordamida to'plandi. O'zbek tilshunos olimlarining fikrlari o'rganildi hamda aniqlangan omillarning hozirgi kunda bolaga ism qo'yishdagi ahamiyati tadqiq etildi. So'rovnomaga natijalariga ko'ra tanlanayotgan ismning ma'nosi, uning chiroyli va jarangdor ekanligi bilan birga diniy ism yoki tarixiy shaxslarning ismi ekanligi ism tanlashda muhim sanalgan asosiy jihatlari hisoblanadi. Antroponimlarning turli davrda turli xillari urfga kirishi esa o'sha davrdagi ijtimoiy hayot, xalqning ma'naviy saviyasi, tarixiy va diniy bilimlarga egalik ko'lamiga uzviy bog'liqdir.

Аннотация

Поскольку человеческий фактор находится в центре постлингвистических исследований, любая единица, связанная с ним, может быть релевантным объектом исследования. Такой активной языковой единицей являются имена, данные людям. В данной статье говорится об ономастике - науке, изучающей имена, и антропонимике - науке, изучающей имена людей, позднее отделившийся от ономастики, наряду с именами, которые являются их единством. Также в статье частично представлен анализ теоретических данных и уровня изученности этих подразделений. Цель исследования - изучить причины принятия разных имен с течением времени, а также определить факторы, считающиеся важными при выборе имени. Данные для статьи собраны методом анализа и анкетирования. Изучены мнения узбекских лингвистов и изучено значение выявленных факторов в наречении имени ребенка сегодня. По результатам опроса, значение выбранного имени, красивое и звучное оно, а также является ли это религиозным именем или именем исторического лица, являются основными аспектами, которые считаются важными при выборе имени. Принятие разных типов антропонимов в разные периоды зависит от общественной жизни того периода, духовного уровня народа, уровня исторических и религиозных знаний.

Abstract

As the human factor lies at the core of post-linguistic researches, any unit related to humans might be a pertinent subject of investigation. People's names constitute one such dynamic language unit. This article addresses two scientific disciplines studying names as a main unit: onomastics, and anthroponomy which eventually separated from onomastics. The article also partially presents an analysis of theoretical data and the level of investigation of these units. The purpose of the study is to examine the reasons for incorporation of different names into a custom over time, and to identify factors considered important when choosing a name. The data for the article was collected by analysis and questionnaires. The opinions of Uzbek linguists were studied and the significance of the identified factors in naming a child today was studied. According to the survey, the main aspects considered important when choosing a name are the meaning of the chosen name, its beauty and sonority as well as being either a religious name or the name of a historical person. The adoption of different types of anthroponym into a tradition in different periods depends on the social life of that period, the spiritual level of the people, the level of historical and religious knowledge.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponim, ismlar, diniy, madaniy, urf, omil, motiv, ma'no, tarixiy shaxslar**Ключевые слова:** ономастика, антропоним, имена, религиозные, культурные, традиции, фактор, мотив, значение, исторические личности.

Key words: *onomastics, anthroponym, names, religious, cultural, traditions, factor, motive, meaning, historical figures.*

KIRISH

Tilshunoslikda yangi davr – atroposentrik paradigmaga asoslangan tadqiqotlar davri boshlanishi bilan inson omiliga bog'liq har qanday birlik ilmiy izlanish predmeti bo'la boshladi. Jumladan, XIX asrga qadar ko'proq faylasuflar diqqati markazida bo'lgan ismlarni o'rganishga o'tgan asr ikkinchi yarmiga kelib tilshunoslarning qiziqishi ortishi natijasida onomastika tilshunoslikning faol o'rganilayotgan bo'limiga aylandi.

Onomastika – yunoncha “onomastikos” – *ismga bog'liq* ma'noli so'zdan kelib chiqqan bo'lib, “nom qo'yish san'ati” degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Atoqli otlarni o'rganish tarixi qadimgi yunon faylasuflarining asarlariga borib taqaladi. Aristotel, Demokrit va Geraklitlar atoqli otlarning xususiyatlari haqida sharhlar bergan. Ular muhokamasidagi masala ismlar va nomlar bu tabiiy hodisami yoki biror qonuniyatga bo'ysunadimi degan savol bo'lgan. “Miloddan avvalgi 1-asrda yashagan Yuliy Polluks “Onomastika” nomli atoqli otlar lug'atini yaratadi. Stoiklar esa, jumladan Xrisipp, atoqli otlarni tilshunoslikning alohida birligi sifatida tasniflagan” [4, 2874]. Uyg'onish davrida va O'rta asrlarda T. Gobbs, J. Lokk, G. Leybnits kabi olimlar, XIX asr davomida esa J. Mill, B. Rassel, O. Yespersen va boshqalarning tadqiqotlarida atoqli otlar va ularning leksik sathdagi o'rni haqidagi munozaralar davom etgan. A.V. Superanskaya, N.V. Podolskaya, V.A. Nikonov, N.I. Tolstoy, O.N. Trubachev, V.D. Bondaletov, M.V. Gorbanevskiy kabi rus tilshunos olimlari onomastikaning umumiy muammolarini o'rgangan bo'lsa, S.I. Zinin, M.V. Karpenko, Yu.A. Karpenko, E.L. Berezovich, A.K. Matveyev, I.V. Kryukova va boshqalar tegishli nomlarning asosiy tavsifini bergan. Shuningdek, yana bir qator tilshunos olimlar tomonidan onomastik materialni turli funksional jihatlarida: apellyatsiya, onimizatsiya, transonimizatsiya misolida ko'rib chiqilgan, onomastika sohasidagi asosiy tarixiy jarayonlarning xarakteristikalari berilgan, onimlarning alohida toifalariga leksikografik tavsiflar berilgan hamda ismlarning adabiy matnlardagi faol ahamiyati o'rganib kelinmoqda [4, 5].

1960-1970-yillarda onomastika tarkibidan yangi bo'lim – antroponimika ajralib chiqadi. “Antroponimika – yunoncha “antropos” – inson, “onimi” – ism, nom so'zlaridan olingan bo'lib, odamlar ismini, ularning tarqalganligi, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo'llanishini va bundan tashqari antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o'rganadi. Shuningdek, atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikning turli usullari ham antroponimik tadqiqotlar markazi hisoblanadi” [7]. Rus tilshunos olimi N.Podolskaya o'zining “Rus onomastik terminologiyasi lug'ati”da antroponimlar tarkibiga ism, sharif, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (yashirin ism, laqablar), andronim, ginekonim va patronimlarni kiritgan. O'ziga xos nomlar o'z nomi bilan atalgan obyektini boshqa predmetlardan farqlash uchun xizmat qiluvchi so'z yoki ibora ekanligini bildiradi [3]. Antroponimlar haqida turkiy qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devoni lug'otit-turk” asarida ma'lumotlar berib o'tgan. Unda olim xonlarning, pahlavonlarning, urug' boshliqlarining ismlari, oddiy odamlarning ism va laqablariga to'xtalib o'tadi [6,89].

Antroponimlar haqida so'z ketganda albatta birinchi bo'lib insonga u tug'ilganida berilgan ism tasavvurimizga keladi. Farzand uchun ma'noli, chiroyli, ulg'ayganida atrofda qilari oldida hijolatli holatga tushirmaydigan ism tanlash ota-onaning farzand oldidagi burchi hisoblanadi. Shu sababli, chaqaloq uchun mo'ljallanayotgan ismning kelib chiqish tarixi, nima ma'noni anglatishi kabi ma'lumotlarga ega bo'lish har birimiz uchun foydadan holi bo'lmaydi. Aynan mazkur omil antroponimlar tadqiqotining dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Mazkur maqola uchun ma'lumotlarni to'plashda adabiyotlarni o'rganish, ularni solishtirish usullaridan foydalanildi. Maqolada natijalari keltirilgan kichik tadqiqotni amalga oshirishda esa kuzatuv hamda so'rovnomma metodlaridan foydalanildi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism berish turli davrlarda turlicha an'analarga asoslanib kelgan. Nomshunos olim Ernest Begmatov o'zining “O'zbek tili antroponimikasi” kitobida ta'kidlashicha, “bolani nomlash odatlari va kishi nomlarining paydo bo'lishi, rivoji dastlab xalqning iqtisodiy-xo'jalik

TILSHUNOSLIK

sharoiti, shunga bog'liq holda ma'naviy turmushi, jumladan, diniy va estetik qarashlari, shuningdek, geografik muhiti bilan yaqindan bog'liq hodisadir" [16, 1].

Bundan ko'rinib turibdiki, insonga berilgan ism tarixi u yashagan ijtimoiy muhit, davr, hamda o'sha muhitda insonlarning ma'naviy saviyalariga ham bog'liq. Xalqimizda farzandga ism qo'yishda turli motivlarga asoslaniladi. Shulardan biri e'tiqod – diniy motiv hisoblanadi. Biroq, din o'zgarmas bo'lsa-da, turli davrlarda u bilan bog'liq turlicha ismlar urf bo'lganini qomusiy olimlarimiz, har xil vaqtda yashab ijod qilgan yozuvchi shoirlarimiz va ularning badiiy asarlaridagi ismlar, taniqli yoki oddiy shaxslar ismlari misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, islom dini o'lkamizga ilk kirib kelgan davrlarda kishilar ismiga xuddi arab ismlaridek "ibn", "abu" so'zlari qo'shilishi urf bo'lganini Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk ajdodlarimiz ismlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Bir necha asrlar davomida o'zbek antroponimikasining katta hajmini tashkil etgan diniy ismlar ruslar istilosiga qadar faol murojaat qilingan ismlardan bo'lib kelganini tarixiy manbalarda turli shaxslarning ismlari orqali bilish mumkin. Yana boshqa davrda *Xudoyberdi*, *Olloberdi*, *Olloyor*, *Xudoyor*, *Tangribergan*, *Ollobergan* ismlari keng tarqalgan bo'lsa, Chor Rossiyasi hamda sobiq ittifoq hukmronligi davrida e'tiqodimizga bo'lgan bosim tufayli chuqur diniy bilimga ega bo'lgan insonlar xalqimiz orasida tobora kamayib, bu holat ismlar tanlashda ham o'z aksini topganini kuzatish mumkin. Mustaqilligimizning ilk yillarida ham sobiq tuzum natijasi bo'lgan mafkuraviy bo'shliq farzandiga ism tanlayotgan ota-onaning diniy emas boshqa manbalarga, boshqa motivlarga yuzlanishiga sabab bo'lgan. Ana shu mafkuraviy bo'shliqning o'rnini to'ldirish maqsadida yana islom diniga murojaat qilinar ekan, xalqimizning islom dini tarixi, uning mohiyati haqidagi bilimlari ortib bordi. Natijada, hozirgi kunga kelib, Muhammad, Umar, Ali, Islom, "Abdu" so'zi va Alloh ismi birlashuvidan hosil bo'lgan ismlar, payg'ambarlar ismlarini qo'yish yana urfga aylandi.

NATIJA VA MUHOKAMA


Joriy yilning yanvar oyida kun.uz axborot-informatsion veb sahifasida e'lon qilingan maqolaga ko'ra 2023-yilda O'zbekistonda eng ko'p qo'yilgan o'g'il bolalar ismi Muhammadali va eng ko'p qo'yilgan qiz bola ismi Soliha bo'lgan. Adliya vazirligi taqdim etgan statistik ma'lumotga ko'ra 2023-yil davomida 27341 nafar o'g'il bolalarga Muhammadali, 24365 nafar qiz bolalarga Soliha deb ism berilgan. Shunisi e'tiborliki, bu ikki ism 2019, 2020, 2021 va 2022 yillarda ham eng ko'p qo'yilgan ismlar reytingida birinchi o'rinda turgan ismlar bo'lgan.

Muhammad ismi nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda eng ko'p qo'yiladigan ism hisoblanadi. Fikrimiz isboti sifatida Google qidiruv platformasida "dunyoda eng ko'p tarqalgan ism" so'roviga javoban qizlarda Maryam ismi, o'g'il bolalarda Muhammad ismi dunyo bo'yicha yetakchi o'rinda ko'rsatilishini keltirishimiz mumkin. Garchi musulmon bo'lmagan ba'zi mamalakatlarda ham Muhammad ismi eng ko'p qo'yilgan bo'lsa-da, har ikkala ismning tanlanish sababi ham diniy motivga asoslanadi. Bundan tashqari, ism tanlashda uning ma'nosi, jarangdorligi, oilaning boshqa a'zolari ismlariga o'xshashligi, tarixiy shaxslarga o'xshasin degan niyatda qo'yilishi, oila shajarasidagi avvalroq yashagan kattalar ismlarining qo'yilishi ham ko'p uchraydigan motivlardan hisoblanadi. Mashhur shaxslarning ismlarini qo'yish ham eng ko'p tarqalgan holat deyish mumkin. Masalan, 2016-yil statistikasida o'g'il bolalarga eng ko'p qo'yilgan ismlardan biri Islom deb ko'rsatiladi, Bu esa o'sha paytda mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimovning vafoti, prezidentimizning shaxsiga nisbatan xalqimiz his etgan hurmat tuyg'usi bilan bevosita bog'liq. Yuqorida ko'rsatilgan ismlardan tashqari 2014-yildan avvalroq tug'ilgan bolalar orasida Azizbek ismi, qizlar orasida Mubina hamda Madina ismlari keng tarqalgan. Ismlarni tanlashda inobatga olinadigan omillar, oila a'zolarining, ya'ni ota-ona, bobo-buvilarning ism qo'yish jarayonidagi ishtiroklari, 1990-2005-yillar orasida urf bo'lgan ismlar haqida statistik ma'lumotlarni jonli yig'ish maqsadida o'tkazilgan kichik so'rovnomamiz natijalarini tahlil qilsak, ana shu yuqorida ko'rsatilgan ismlar eng ko'p uchrashini, va ism tanlashda sanab o'tilgan omillarga ko'proq murojaat qilinganligi ma'lum bo'ldi (Jadval 1).



50 nafar ishtirokchi javob bergan kichik so'rovnomamizda "Ismingizni tanlashda qanday omil inobatga olingan?" degan savolga aksariyat javob beruvchilar "ma'nosining chiroyliligi" degan javobni tanladilar.

Ma'lumki, farzandga ism qo'yishda, albatta, ota-ona bevosita mas'ul hisoblanadi, ammo o'zbek xalqi mentalitetiga xos yana bir holat – bu yosh oila farzandiga ism tanlashni chaqaloqning bobo-buvilariga qo'yib berishidir. Bu bilan xalqimiz oilada kattalarga bo'lgan hurmatini ko'rsatishi e'tiborga loyiqdir. Buning isbotini so'rovnomamizning yana bir savoliga berilgan javoblar statistikasida ko'rish mumkin (Jadval 2).



So'rovnomalar natijalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, 1990-2000-yillar oralig'ida urf bo'lgan ismlar Shaxnoza, Nargiza, Muxlisa, Maftuna, Nozima, Durdoni kabi qizlar ismlari, Shoxruh, Bekzod, Sardor, Ulug'bek, Jahongir kabi o'g'il bolalar ismlari bo'lsa, 2000-2005-yillar oralig'ida Munira, Muslima, Dilnoza, Sevinch kabi qizlar ismlari, Nodir, Dilshod, Abbas ismlari ko'p uchrashini kuzatish mumkin. Shunisi e'tiborliki, Aziza, Madina kabi qizlar ismi va Aziz, Shoxruh, Sardor kabi o'g'il bolalar ismlari 90-yillardan keying 20 yillikning eng ko'p tarqalgan ismlari safidagi o'rnini saqlab qolgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, farzandga ism tanlash turli davrlarda har xil omillarga asoslanadi. Turkiy xalqlar madaniyatiga xos bo'lgan xislat, ya'ni oilada kattalarga hurmat farzandga ism tanlashda ham o'z aksini topganini bobo-buvilarimiz ham yangi tug'ilgan nabiraga ism tanlashda faol ekanliklaridan bilish mumkin. Maqolada ko'rsatib o'tilgan omillarga asoslanib insonning ismi unga ism qo'yilayotgan davrdagi ijtimoiy holat, yashash tarzi, diniy-estetik saviya haqida ma'lumot beradi deyish mumkin. Shunday ekan bir necha yillar avval urfda bo'lgan ismlar aynan siz farzandingizga ism tanlayotganingizda urfdan qolgan, eskirgan bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan esa, davrlar, zamonlar oshsada eskirmaydigan ismlar sirasiga kiruvchi diniy tarixga ega atoqli otlar ota-onalar tomonidan eng ko'p tanlangan ismlarni tashkil etishda davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begmatov, E. O'zbek tili antroponomikasi. – Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2013.
2. Begmatov, E., Uluqov, N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. Namangan, 2006
3. Podolskaya, N.V. Словарь ономастической терминологии (СПОТ). – Moskva, Nauka, 1988.
4. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. Reflection of Onomastic Principles in Naming. *Psychology and Education*, 2021, AQSh, 2874-2878.
5. Sizranova, G.Yu. Ономастика, o'quv qo'llanma. – Tolyatti, TDU nashriyoti, 2013
6. Hakimov, X. Antroponomikaning tilshunoslikda o'rganilish taraqqiyotiga doir. *Oriental Renaissance*, 3(12) 2023, 89-94.
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000.